# FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2024 - yil 18 - mart 73-11-165-Q/24 Yozyovon tuman hokimligi

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil-5 martdagi “Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo‘jaliklarida yangi zahiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-115-son qarori ijrosi haqida

Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va ularning eksportini oshirish, qishloq xo‘jaligi kichik ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash, ekin yerlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, pirovard natijada yer egalarining daromadlarini ko‘paytirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-martdagi **“Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo‘jaliklarida yangi zahiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida**”gi PQ-115-sonli hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 15-fevraldagi 157-11-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-martdagi **“Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo‘jaliklarida yangi zahiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida**”gi PQ-115-sonli hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 15-fevraldagi 157-11-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul

qilinsin.

**2. Mazkur qaror bilan:**

hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib hamda suv ta’minotini inobatga olgan holda, **tumanlar eksportbop va serdaromad ekinlar ekishga**, shuningdek, **kichik ishlab chiqarish va mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirilishi**;

2024-yilda **eksportbop va serdaromad ekinlar ekish** va aholining mazkur sohada **bilim va ko‘nikmalarini oshirish** uchun **54 ta** tumanda **namunaviy o’quv-tajriba maydonlari tashkil etilishi**;

2024-yilda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan **51 ta** tumanda meva-sabzavotlarni **shok usulida muzlatishni** yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirilishi;

Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida ishlab chiqarishga oid loyihalar bilan bir qatorda **mahsulot yetishtirish bilan bog‘liq loyihalarga**, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish bundan mustasno, **100 million so‘mgacha garovsiz kreditlar ajratilishi;**

muzlatkichli omborxona, tayyor holda issiqxona, qadoqlash, quritish va qayta ishlash tsexlari **aholiga 12 oyga bo‘lib to‘lash sharti bilan lizingga berilishi;**

**o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar** shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatiga **xonadonlarda biogumus tayyorlash faoliyati kiritilishi** belgilanganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, tartibga ko‘ra Jamg‘arma resurslari hisobidan ajratiladigan kreditlar yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan
4 foizlik punkt yuqori stavkada (shundan 4 foizi bank marjasi):

chorvachilik (qoramol, qo‘y, echki), baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik, kurkachilik va parrandachilik, biogumus ishlab chiqarish va “dala do‘konlari”ni qurish uchun – **1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yil muddatga;**

bog‘dorchilik (ko‘chatchilik), uzumchilik (tok so‘risi) va limonchilikni tashkil etish, issiqxona qurish, qishloq xo‘jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish hamda ularni joylashtirish uchun bino va inshootlar qurish, ko‘chma muzlatkichlarni o‘rnatish, artezian quduqlarini qazish uchun – **3 yilgacha imtiyozli**

**davr bilan 7 yilgacha muddatga berilishi** joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarori 2-bandi uchinchi xatboshisida belgilangan dehqon xo‘jaliklariga kredit ajratish tartibini “Tomorqa xizmat” YaTTlarga ham tatbiq etish;

“Tomorqa xizmat” YaTTlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida minitexnikalar va asbob-uskunalarni lizing shartlari asosida yetkazib berishda lizing to‘lovlarining boshlang‘ich to‘lovlarini loyiha qiymatining 40 foizi miqdorida belgilash;

2027-yil 1-yanvarga qadar motokultivatorlar (TIF TN kodi – 8432 29 100 0), bir o‘qli traktorlar (TIF TN kodi – 8701 10000 0) va minitraktorlarni (TIF TN kodi – 8701 91 100 0 – 8701 94 100) olib kirishda bojxona bojining nol stavkalarini belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi inobatga olinsin.

**3.** Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (B.Abduraxmonov) hamda Maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi (S.Usmonov), Beshariq (R.Jo‘rayev), Buvayda (B.Ibragimov), Quva (X.Umarov), Oltiariq (Sh.Turdaliyev), Rishton (B.Xoliqov), Toshloq (A.Djo‘rabayev), Uchko‘prik (Q.Erkaboyev), Farg‘ona (X.Inomov), Furqat (J.Jumanov) tumanlari va Farg‘ona (V.Nazarov) shahar hokimlari bilan birgalikda 2024-yilda **1-ilovaga** muvofiq ro‘yxatga asosan tumanlarni **eksportbop va serdaromad ekinlar ekishga**, shuningdek, **kichik ishlab chiqarish va mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish** choralarini ko‘rishligi;

**4.** Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (A.Yuldashev), Dang’ara (Sh.Tojixakimov), Rishton (B.Xoliqov), Uchko’prik (Q.Erkaboyev), Furqat (J.Jumanov) tumanlari va Quvasoy (Z.To‘raqulov) shahar hokimlari bilan birgalikda 2024 yilda **2-ilovaga** muvofiq ro‘yxatga asosan **5 ta** tumanni **eksportbop ekinlar** yetishtirishga ixtisoslashtirish, mazkur tumanlarga **10 ta**dan eksportyorlarni biriktirish choralarini ko‘rishligi;

**5.** Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (G‘.Boypo‘latov), Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi viloyat bo‘limi (D.Madatqulov), shahar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan **Quvasoy shahar, Quva, Farg‘ona, Oltiariq, Rishton, Uchko‘prik, O‘zbekiston, Beshariq** tumanlarida meva-sabzavotlarni **shok usulida muzlatishni** yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**6.** Quyidagilar:

Tumanda 2024-yilda aholi tomorqa yer uchastkalarida bahorgi (ertaki), takroriy (o‘rtaki) va to‘qsonbosti usulida ekinlar ekish, jumladan **2 ming gektar** maydonga **uch marta** hosil olishni nazarda tutuvchi qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirish prognoz ko‘rsatkichlari **3-ilovaga** muvofiq;

aholiga kompleks xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashib, faoliyati **klaster usulida** tashkil etiladigan “Tomorqa xizmati” MChJ ro‘yxati **4-ilovaga** muvofiq;

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida tashkil etiladigan va aholi tomorqalariga xizmat ko‘rsatuvchi “Tomorqa xizmati” korxonalarini moliyalashtirish prognoz ko‘rsatkichlari **5-ilovaga** muvofiq;

Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan 2024 yilda fermer va dehqon xo‘jaliklariga, tomorqa yer egalariga bog‘ qator oralariga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va tomorqa infratuzilmasini rivojlantirish uchun mablag‘ ajratish prognozlari **6-ilovaga** muvofiq;

**eksportbop va serdaromad ekinlar ekish uchun tumanda namunaviy o‘quv-tajriba maydoni tashkil etish** ko‘rsatkichi **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**7.** Maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘limi (U.Nisbatxonov) - maxalla fuqarolar yig‘inlari kesimida har bir hududning ixtisoslashuvi, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta’minotini inobatga olgan holda **“Bir maxalla – bir mahsulot”** tamoyili asosida tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirish prognoz ko‘rsatkichlarini **o‘n besh kun muddatda** tasdiqlasin va ijrosini tashkil etsin.

**8.** Maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘limi (U.Nisbatxonov), Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A.Soliyev) bilan birgalikda “Online-mahalla” elektron platformasida alohida yaratilgan **“Aholi tomorqasi” moduliga** hokim yordamchilari, tuman fermer,

dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi vakillari tomonidan maxallalarda uyma-uy yurish orqali tomorqa yer egalari tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xonadonda mavjud issiqxonalar hamda tomorqadan samarali foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har olti oyda (aprel, oktyabr oylarida) kiritib borsin.

**9.** Tuman O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi (M.Mullajonov), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (M.Tojiboyev), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A.Soliyev)lar bilan birgalikda dehqon xo‘jaligi uchun ajratilgan yer maydonlarida hududlar ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan va eksportbop ekinlar, jumladan sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini intensiv usulda ekishga alohida e’tibor qaratish, tayyorlov, qayta ishlash va eksport qiluvchi korxonalarni jalb qilgan holda yetishtirilgan tayyor mahsulotni xarid qilish, uni qayta ishlash, saqlash, ichki va tashqi bozorlarga yo‘naltirish choralarini ko‘rsin.

**10.** Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A.Soliyev):

maxallalarda aholi tomorqalarida ochiq va yopiq usulda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish borasida aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan seminarlar va taqdimotlar o‘tkazilishini;

“Markaziy Farg‘ona” ro‘znomasi A.Xudoyqulov mazkur seminarlarni yoritib borilishini tizimli tashkil etish tavsiya etilsin.

**11.** Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi A.Soliyev, Maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i U.Nisbatxonov, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi boshlig‘i J.Fayzullayev, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i M.Tojiboyev, O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi boshlig‘i M.Mullajonov, Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i S.Sobirovlar belgilansin.

**12.** Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Saidov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **D.T.Djalilov**

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 18-martdagi
73-11-165-Q/24-son qaroriga
1-ilova

# Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida 2024 yil axoli tomorqa yer uchastkalarida baxorgi (ertagi), takroriy (o'rtangi) va to'qsonbosti usulida ekinlar ekish, jumladan, 2 ming 287 gektar maydonda uch marta hosil olishni nazarda tutuvchi qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirish prognoz ko'rsatkichlari

| t/r | Hududlar nomi | tomorqa yer egalari | | shu jumladan | | | | | | mavsum davomida | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | soni (mingda) | maydoni, (ming ga) | uch marta ekin ekiladi | | ikki marta ekin ekiladi | | bir marta ekin ekiladi | | bahorgi (ertagi) ming gektar | takroriy (o'rtaki) ming gektar | to'qsonbosti ekinlari,ming gektar | jami almashlab ekish, ming gektar |
| | | | | soni (ming) | maydoni, (ming, ga) | soni (ming) | maydoni, (ming, ga) | soni (ming) | maydoni, (ming, ga) | | | | |
| 1 | Markaziy Farg`ona | 916 | 80 | 795 | 70 | 121 | 10 | | | 75,9 | 73,6 | 76 | 226 |
| 2 | Qo`rg`oncha | 656 | 72 | 569 | 65 | 87 | 7 | | | 68,8 | 66,7 | 69 | 205 |
| 3 | Toshxovuz | 751 | 94 | 652 | 86 | 99 | 8 | | | 89,9 | 87,2 | 90 | 268 |
| 4 | Ittifoq | 495 | 42 | 430 | 37 | 65 | 5 | | | 40,0 | 38,8 | 40 | 119 |
| 5 | Beruniy | 576 | 61 | 500 | 55 | 76 | 6 | | | 58,1 | 56,3 | 58 | 173 |
| 6 | Qotortol | 938 | 53 | 814 | 42 | 124 | 10 | | | 50,1 | 48,6 | 50 | 149 |
| 7 | Ijodkor | 762 | 55 | 661 | 46 | 101 | 8 | | | 52,0 | 50,4 | 52 | 155 |
| 8 | Yangiobod | 869 | 81 | 754 | 72 | 115 | 9 | | | 77,1 | 74,8 | 78 | 230 |
| 9 | Yangibo`ston | 141 | 16 | 122 | 15 | 19 | 1 | | | 15,2 | 14,8 | 15 | 45 |
| **9** | **1-sektor jami** | **6104** | **554** | **5297** | **488** | **807** | **66** | | | **527** | **511** | **530** | **1569** |
| 1 | Guliston | 970 | 79 | 842 | 69 | 128 | 10 | | | 75,4 | 73,2 | 76 | 224 |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Yuqori Soybo`yi | 950 | 61 | 824 | 51 | 126 | 10 | | | 58,3 | 56,5 | 59 | 173 |
| 3 | Soybo`yi | 942 | 65 | 818 | 54 | 124 | 10 | | | 61,5 | 59,7 | 62 | 183 |
| 4 | Mustaxkam Do`stlik | 948 | 68 | 823 | 58 | 125 | 10 | | | 64,9 | 63,0 | 65 | 193 |
| 5 | Qorasoqol | 625 | 60 | 542 | 53 | 83 | 7 | | | 56,9 | 55,2 | 57 | 169 |
| 6 | Yuqori | 690 | 71 | 599 | 64 | 91 | 7 | | | 67,6 | 65,6 | 68 | 201 |
| **6** | **2-sektor jami** | **5125** | **404** | **4448** | **349** | **677** | **55** | | | **385** | **373** | **387** | **1145** |
| 1 | Istiqlol | 500 | 70 | 434 | 64 | 66 | 5 | | | 66,4 | 64,4 | 67 | 198 |
| 2 | Cho`lguliston | 915 | 68 | 794 | 58 | 121 | 10 | | | 65,0 | 63,1 | 65 | 194 |
| 3 | Taraqqiyot | 785 | 89 | 681 | 80 | 104 | 8 | | | 84,4 | 81,8 | 85 | 251 |
| 4 | Qorasoy | 701 | 86 | 608 | 78 | 93 | 8 | | | 81,9 | 79,4 | 82 | 244 |
| 5 | Qoratepa | 785 | 86 | 681 | 78 | 104 | 8 | | | 82,3 | 79,8 | 83 | 245 |
| 6 | Guzarboshi | 845 | 130 | 733 | 121 | 112 | 9 | | | 123,8 | 120,1 | 125 | 368 |
| 7 | Porloq | 725 | 85 | 629 | 77 | 96 | 8 | | | 80,6 | 78,1 | 81 | 240 |
| 8 | Do`stlik | 802 | 85 | 696 | 76 | 106 | 9 | | | 80,5 | 78,0 | 81 | 239 |
| 9 | Ishtirxon | 586 | 59 | 509 | 53 | 77 | 6 | | | 56,2 | 54,5 | 57 | 167 |
| 10 | Gaston | 623 | 57 | 541 | 50 | 82 | 7 | | | 54,3 | 52,6 | 55 | 162 |
| **10** | **3-sektor jami** | **7267** | **814** | **6306** | **736** | **961** | **78** | | | **775** | **752** | **780** | **2307** |
| 1 | Yozyovon | 321 | 41 | 279 | 38 | 42 | 3 | | | 39,0 | 37,9 | 39 | 116 |
| 2 | Navro`z | 608 | 76 | 528 | 69 | 80 | 6 | | | 72,1 | 69,9 | 73 | 215 |
| 3 | Tegirmonboshi | 359 | 41 | 312 | 37 | 47 | 4 | | | 38,8 | 37,6 | 39 | 115 |
| 4 | Bahor | 482 | 39 | 418 | 34 | 64 | 5 | | | 37,1 | 36,0 | 37 | 111 |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | Xonobod | 603 | 74 | 523 | 68 | 80 | 6 | | | 70,5 | 68,3 | 71 | 210 |
| 6 | Yoshlik | 771 | 88 | 669 | 80 | 102 | 8 | | | 83,8 | 81,3 | 84 | 249 |
| 7 | Soyyoni | 750 | 69 | 651 | 61 | 99 | 8 | | | 65,7 | 63,7 | 66 | 196 |
| 8 | Suvliariq | 846 | 88 | 736 | 79 | 110 | 9 | | | 83,8 | 81,3 | 84 | 249 |
| **8** | **4-sektor jami** | **4740** | **515** | **4116** | **464** | **624** | **51** | | | **491** | **476** | **494** | **1461** |
| **33** | **Tuman jami** | **23236** | **2287** | **20167** | **2037** | **3058** | **250** | | | **2178** | **2112** | **2191** | **6513** |

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 18-martdagi
73-11-165-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Aholiga kompleks xizmat ko'rsatishga ixtisoslashib, 2024 yilda faoliyati klaster usulida tashkil etiladigan “tomorqa xizmati” MChJ ro'yxati**

| t/r | nomlanishi | tuman | mahalla |
|---|---|---|---|
| **1.** | “Estofo” MChJ | Yozyovon | Qorasoy |

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 18-martdagi
73-11-165-Q/24-son qaroriga
3-ilova

**Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida tashkil etiladigan va aholi tomorqalariga xizmat ko'rsatuvchi "tomorqa xizmati" korxonalarini moliyalashtirish**

**prognoz kO'rsatkichlari**

| t/r | tuman nomi | tashkil etiladigan Yatt shaklidagi "tomorqa xizmatlari" | etkazib beriladigan | | | | | kengash huzuridagi jamg'armadan ajratiladigan mablag' (mlrd.so'm) | xizmat ko'rsatiladigan aholi xonadonlari soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | mini texnikalar* | kichik hajmli sovitkichli omborxonalar | | ko'chma quritish uskunalari | | | |
| | | | | soni | hajmi (tonna) | soni | hajmi (tonna) | | |
| 1 | Yozyovon | 7 | 21 | 5 | 50 | 6 | 360 | 500 | 1750 |
| **jami** | | **7** | **21** | **5** | **50** | **6** | **360** | **500** | **1 750** |

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 18-martdagi
73-11-165-Q/24-son qaroriga
4-ilova

# Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida fermer dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 2024 yilda fermer va dehqon xo'jaliklariga, tomorqa yer egalariga bog'-qator oralariga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va tomorqa infratuzilmasini rivojlantirish uchun mablag' ajratish prognozlari

*mln.so'mda*

| t/r | tuman nomi | jamg'armadan ajratiladigan mablag'lar * | shundan | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | I chorak | II chorak | III chorak | IV chorak |
| 1 | Yozyovon | 2 400 | 431 | 771 | 713 | 485 |
| **jami** | | **2 400** | **431** | **771** | **713** | **485** |

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 18-martdagi
73-11-165-Q/24-son qaroriga
5-ilova

**Eksportbop va serdaromad ekinlar ekish uchun namunaviy o'quv-tajriba maydonlari tashkil etiladigan tumanlar ro'yxati**

| t/r | Nomlanishi | tuman | mahalla |
|---|---|---|---|
| 1. | “Estofo” MChJ | Yozyovon | Qorasoy |